

EKOLOGIK SIYOSAT VA UNI AMALGA OSHIRISHNING IQTISODIY
MEXANIZMI

*To‘rayeva Sarvinoz Begzod qizi
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada yer yuzidagi ekologik muammolarning turlari va ularning darajalari hamda insonlarning tabiatga ta’siri xususida, shuningdek, atmosferaning buzilishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillar va unda hissasi ko‘proq bo‘lgan davlatlar hamda BMT tashkilotining iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq muammolarni yechish borasidagi harakatlari, Orol dengizining qurib borishi haqidagi mulohazalar va yurtimizda “yashil” iqtisodiyot borasida olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida hamda Parij bitimining ahamiyati va mohiyati borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, ekologik muammolar, resurs, atrof muhit, tabiiy muhit, degradatsiya, biologik xilma-xillik, Parij bitimi, global muammolar, iqlim o‘zgarishi, ekologik siyosat.

Abstract: The article deals with the types and levels of environmental problems on earth and the impact of humans on nature, as well as the main factors that cause the deterioration of the atmosphere and the countries with the greatest contribution to it, as well as climate changes of the UN organization actions to solve the problems, comments on the drying up of the Aral Sea and the reforms being carried out in the "green" economy in our country, as well as information on the importance and essence of the Paris Agreement

Key words: "green" economy, environmental problems, resource, environment, natural environment, degradation, biological diversity, Paris Agreement, global problems, climate change, environmental policy

Yurtimizda yashil iqtisodiyotga o‘tishda bir qancha muammolardan ba’zilari shulardan iboratki, atrof muhitning ifloslanishi, tabiiy va qayta tiklanmaydigan resurslardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida sodir bo‘layotgan ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligini ko‘rsatish mumkin.

Ushbu ekologik muammolar tabiatga ta’sir qilish kuchiga, intensivligiga hamda uning ta’sir maydoni va boshqa ayrim ekologik muammolarga xos belgilari bo‘yicha aniqlanadi. YA’ni uning namoyish bo‘lish darajalari kuchsiz, o‘rta va kuchli bo‘ladi. Albatta, bu darajalar uning tabiiy muhit xususiyatlarini o‘zgartirish darajasiga qarab tabaqalashtiriladi. Jumladan, 10 % atrofidagi ko‘rsatkich bu quyi ya’ni kuchsiz daraja sirasiga kirsa, 10-50 % tashkil qiluvchi omillar o‘rta daraja hisoblanib, 50 % dan yuqorisi kuchli darajani tashkil qiladi. So‘nggi yillarda insonlarning atrof muhitga



bo‘lgan salbiy munosabati va ta’siri global miqyosdagi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Va eng havotirlisi shundaki, tabiatning asl holatini yo‘qotishi ya’ni yerning dastlabki hususiyatlari va xarakterining salbiy o‘zgarishi insoniyat oldidagi yechilishi zarur bo‘lgan eng muhim muammolar tarkibida bo‘lib kelmoqda. [1]

Asosan, XX asrning 60-70-yillaridan boshlab insonlarning atrof muhitga bo‘lgan salbiy ta’siri ortib, bu sanoat va qurilishlarning soni ortib ketayotgani bilan bog‘liq. XX asr davomida jahon aholisi soni 4 martaga, jahon ishlab chiqarish hajmi esa 18 martaga oshdi. Global miqyosdagi ekologik muammoga aylanib ulgurgan muammolar tarkibiga iqlim o‘zgarishi, suv havzalarining ifloslanishi, yerlarning cho‘llanishi va degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning qisqarib borishi, ozon qatlaming yemirilishi, chuchuk suv zaxiralarining tugab borishi va Jahon okeani suvlarining ifloslanishi kabi bir qator dolzarb muammoli masalalarni kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, insonlar yoqilg‘i vositalari neft, gaz va ko‘mirdan keragidan ortiq foydalanayotganligi oqibatida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdori ortib bormoqda. Ushbu gazlar atmosferada to‘planib, sayyoraning qizigan sirti taratadigan ortiqcha issiqlikning kosmosga tarqalishiga yo‘l qo‘ymaydi va atmosferaning isishiga sabab bo‘ladi. 2018 yilda issiqxona gazlarining atmosferadagi konsentratsiyasi bir millionga 405,5 zarrani tashkil etgan va ushbu ko‘rsatkich sanoatlashishgacha bo‘lgan davrga nisbatan 146% ga ortgan. Global miqyosdagi muammolardan tashqari yurtimizda ham ko‘p muhokamalarga sabab bo‘la oladigan va yechilishi hamda tezroq oldini olish kerak bo‘lgan muammolardan biri bu Orol dengizining qurishi va so‘nggi yillarda o‘rta hajmdagi 3 ta ko‘ldan iborat bo‘lib qolganligi ma’lum. Ta’kidlab o‘tish joizki, yurtimizda bu masalaga doir ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda va muammoni bartaraf etish yo‘llari qidirilmoqda. Bundan tashqari, butun insoniyatni tashvishga solayotgan muammo iqlimning o‘zgarishi hisoblanadi.

Global iqlim o‘zgarishlari XXI asrda mamlakatlar o‘rtasida ko‘zga tashlanayotgan iqtisodiy tengsizlikni yaqqol yuzaga chiqarmoqda. Global issiqxona gazlarining 26% i AQSH ga, 22 % i Yevropaga to‘g‘ri keladi hamda bor-yo‘g‘i 3,8 % Afrika qit’asi hissasiga to‘g‘ri keladi. Issiqxonalarining 80% ko‘rsatkichi rivojlangan mamlakatlar tarkibida bo‘lib, qayd etilgan mamlakatlar 2030 yilga qadar ko‘rsatkichni 20-40 % gacha qisqartirish majburiyatini olishgan. Shuningdek, global iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq muammolarni hal etishda BMT yetakchi mavqega ega. BMT tomonidan 1972 yil Stokgolmda o‘tkazilgan atrof muhit masalalari bo‘yicha Konferensiyada qabul qilingan Deklaratsiya atrof muhit bilan bog‘liq muammolarga e’tibor qaratilgan dastlabki xalqaro hujjat hisoblanadi. [1]

Davlat miqyosida olib boriladigan ekologik siyosat mamlakat hududining ekologik holati bilan bog‘liq afzalliklar va kamchiliklarga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarini qamrab oladi. Mintaqaviy darajada amalga oshiriladigan

ekologik siyosatda davlat tomonidan mamlakatning muayyan mintaqalaridagi ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan siyosat tushiniladi. Jumladan, yurtimizda ham davlat tomonidan ekologiyani muhofaza qilish chora-tadbirlari ko‘lami kengaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qaroriga muvofiq “O‘zbekistonda “Yashil” iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish borasida iqtisodiyot tarmoqlarida “yashil” texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo‘llashga o‘tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish hamda ularni hayotga tatbiq etish” va boshqa bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. [2]

XXI asr boshlarida atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarga yechim topish masalalari ayrim siyosiy partiyalarning mafkuraviy dasturiga aylanib bo‘ldi. Dunyoda ekologiya yo‘nalishdagi qariyb 100 ga yaqin siyosiy partiyalar faoliyat yuritadi. Odatda, “yashillar” nomi bilan yuritiladigan ushbu partiyalar, parlament orqali ekologiya sohasidagi davlat siyosati g‘oyalarni ilgari suradi. O‘zbekistonda eng yosh partiya 2019 yil 24 yanvarda Adliya vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Ekologik partiyasi” davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Yangi partianing maqsadi barqaror rivojlanishga, ekologik xavfsizlikka erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni saqlash va qulay atrof muhitni yaratishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni ta’minalash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlar, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo‘lishiga erishishga ko‘maklashishga qaratilgan.[1]

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015-yil 12-dekabr) majburiyatlari bajarilishini va O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishini ta’minalash maqsadida “davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish” kabi ko‘plab qarorlar qabul qilindi.[3]

Hozirgi vaqtida Parij bitimini imzolagan 195 mamlakatning 180 tasi mazkur hujjat ishtirokchisi hisoblanadi. Bitimni ratifikatsiya qilmagan mamlakatlar kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lib, ular uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan iqlimga doir dastur va loyihalarni moliyalashtirishda cheklovlar qo‘llaniladi.

Ushbu bitimning maqsadi sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi o‘rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo‘yicha 2°S ga saqlab turish hamda haroratning $1,5^{\circ}\text{S}$ gacha o‘sishini cheklashga erishishdan iborat. 2050 yilga borib issiqxona gazlarining global ajratmalarini 40 — 70 foiz kamaytirish, 2100 yilgacha esa 0 yoki manfiy ko‘rsatkichga yetkazish talab etiladi. Mamlakat 2030 yilga

borib erishishi lozim bo‘lgan issiqxona gazlari ajratmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to‘g‘risida IO‘DK kotibiyatiga ma’lumot tayyorlashi Parij bitimini imzolashning majburiy sharti hisoblanadi.

Bitimda rivojlangan mamlakatlarning taraqqiy etayotgan davlatlarga iqlim o‘zgarishining oldini olish va unga moslashish borasidagi say-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash majburiyati yuklatilgan. 2020 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlari hamda ustuvorliklarini e’tiborga olib, moliyaviy ko‘makni 100 milliard AQSH dollariga yetkazishga qaror qilingan.

Hozirgi vaqtida maxsus jamg‘arma umumiyligi qiymati 1,5 milliard AQSH dollarilik 35 ta loyihani moliyalashtirmoqda. Ular orasida O‘zbekiston hamda Tojikiston uchun Jahon banki bilan hamkorlikdagi “Orol dengizi havzasida iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning oldini olish dasturi” loyihasini moliyalashtirish masalasi ham ko‘rib chiqilmoqda (20 million AQSH dollariga teng grant).

Shu jihatlarni, eng muhimmi, xalqimiz manfaatlarini, ekologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadi ustuvor ekanini inobatga olgan holda, Parij bitimini ratifikatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasining umuminsoniy qadriyatlar, hujjatda aks ettirilgan atrof-muhitni muhofaza qilish g‘oyalariga sodiqligini ko‘rsatadi. Ayni paytda bu Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyaga a’zo davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ekologik muammolarni global darajada hal etishda quyidagi chora tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi: planetar miqyosda fikrlashning yangi modelini shakllantirish insonni gumanizm tamoyillari asosida tarbiyalash va ularni inson faoliyati qanday global ekologik muammolarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirish; global ekologik muammolar sababini o’rganish; ekologik muammolarni monitoringini olib borish va va prognozlashtirish tizimini yaratish kabi amallar orqali atrof muhitga salbiy munosabatni kamaytirishga va muammolarni oldini olishga erishish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. _Vaxabov A.V., Xajibakiyev SH.X., Tashmatov SH.A., Butaboyev M.T. Yashil_iqtisodiyot._Darslik.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-436-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4477-sonli qarori.
4. Qobil Nosirov. Ma’ruzasi. Parij bitimi mamlakatimizga nima beradi?